

MA`MURIY HUQUQ SOHASIDA O`ZBEKISTON AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

¹To'xtayev Sardor Sulton o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya unioversiteti,
Xalqaro huquq fakulteti 2-bosqich talabasi,

²Soliyev Dilshod Baxtiyorovich

JIDU, Talim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimi,
Xalqaro huquq fakulteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7472021>

Annotatsiya: Ushbu maqolada liberallashtirish sharoitida Respublikamizda ma'muriy huquq sohasining vujudga kelishi, rivojlanishi hamda mohiyati muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: ma'muriy javobgarlik, qonuniylik, ma'muriy-huquqiy faoliyat, ichki ishlar organlari, huquqni muhofaza qilish funksiyasi

KIRISH. Ma'muriy huquq – davlatning ijro hokimiyati organlari tuzilmasi va faoliyati doirasini o'rganishga, ularning xususiy shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlari ko'lagini o'rganadigan huquq fanining alohida mustaqil tarmog'idir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Sobiq Ittifoq davrida shakllangan va rivojlangan ma'muriy huquq nazariyasida Ma'muriy huquq fanini delikt ((–delikt|| lot. delictum – buzilish, ayb) – aynan ayb (fuqarolik, ma'muriy, intizomiy huquqbazarlik))lar, ya'ni huquqbazarlik bilan bog'liq bo'lgan fan tarmog'i sifatida qarash ustun edi. Vaholangki, ma'muriy huquq bu pozitiv fan tarmog'idir, uni faqatgina huquqbazarliklar bilan bog'liq bo'lgan fan tarmog'i sifatida qarash noto'g'ri, har holda bugungi kundagi ilmiy yondashuv chuqur insonparvarlik nuqtai nazaridan kelib chiqib, Ma'muriy huquqni ijro hokimiyati organlari bilan xususiy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan tarmog'i sifatida qarash doktrinasi shakllanib ulgurdi.

Ma'muriy huquq – o'z tabiatiga ko'ra, ommaviy huquqiy (ommaviy huquq – umum (jamoat) manfaatini ta'minlovchi munosabatlarni tartibga soladigan huquq tarmoqlari majmui) fanlar turkumiga taalluqli bo'lib, o'zining boshlanish –nuqtasi||ni Konstitutsiyaviy huquqdan o'zlashtiradi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, Ma'muriy huquq – bu konkretlashtirilgan konstitutsiyaviy huquqdir. Zero, davlat boshqaruvining oliy yuridik asoslari Konstitutsiyada o'z ifodasini topadi. Va bunday yondashuv aksariyat xorijiy mamlakatlar huquqi va amaliytiga mos, ya'ni Asosiy qonunda e'tirof etilgan ustuvor prinsiplar va qoidalarni amaliyotda, ularning ijro hokimiyati organlari tomonidan joylardagi

amalga oshirilishini ta'minlashda boshqaruv organlari Oliy qonun va uning asosida qabul qilingan qonunlarga mos ravishda faoliyat yuritadi, davlat siyosatini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetta ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni

«Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Ko'rsatib o'tilgan tizimli muammolarni bartaraf etish, innovatsion rivojlanishning zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish maqsadga O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiysi qabul qilinib uni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Quyidagilar davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va vazifalari sifatida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish belgilandi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarining aniq vazifalari (funksiyalari, vakolatlari)ni va javobgarlik sohalarini belgilash, ishonib topshirilgan tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning aniq tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miriziyoev 5005-sonli «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» Farmonida ichki ishlar organlari (IIO) faoliyatini takomillashtirish jarayoniga quydagicha ta'rif berdilar: «O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va

jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi»[1].

Ta’qidlash joizki, o‘tgan yillar mobaynida mamlakatda fuqarolar tomonidan qonunchilikka rioya etish, qonuniylik va huquqiy tartibot darajasini oshirishda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi muhim rol o‘ynadi. Ushbu normativ huquqiy xujjat fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta‘minlash, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning o‘z vaqtida va ob’ektiv ko‘rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olish, fukarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash bo‘yicha vazifalarni hal etilishida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma’muriy qonunchilik tizimini takomillashtirish, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qo’llaniladigan ma’muriy jazolarni qayta ko‘rib chiqish, jinoiy yurisdiksiyadan ma’muriy yurisdiksiyaga o’tkazish masalasiga ham alohida e’tibor berilmoqda[2, -B. 264].

Amaldagi jinoyat, jinoyat-protsessual va ma’muniy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarida yildan-yilga liberallashtirilib, ularda qonuniylikni ta‘minlashga xizmat qiladigan ko‘plab normalar o‘z ifodasini topdi. Xususan, mazkur qonunlar normalariga rioya qilishni mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bularni biz jinoyat protsessual munosabatlarda yarashuv, amnistiya, af etish, xususiy ayblov hamda Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi rag‘batlantiruvchi normalarning sonini ko‘payib borishida ham ko‘rishimiz mumkin. Lekin, liberalashtirishning mazkur og‘ishmasi ma’muriy-huquqiy munosabatlarda o‘zining ifodasini to‘la topmay kelmoqda. Jinoiy qilmish o‘zining ijtimoiy xavfliligi jihatdan ma’muriy huquqbuzarlikka nisbatan og‘ir bo‘lib, ushbu qilmish uchun belgilangan jazolarning qo’llanilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarning ta’sir etish doirasi ham, ma’muriy javobgarlik natijasida kelib chiqadigan oqibatlardan keskin farq qiladi.

Qonuniylikni ta‘minlashga rioya qilish mexanizmi davlat tarkibidagi huquqni muhofaza qilish faoliyatida muayyan o‘rin tutadi va ular o‘rtasida ichki ishlar organlariga alohida o‘rin ajratilgan. Ushbu sohada ular faoliyatining dolzarbligi hamisha shunday bo‘lgan va o‘zgarishsiz qolmoqda, qonuniylikni ta‘minlashga rioya qilishning amaliy vazifalar bilan bog‘liqligi esa jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashda umum’tirof etilgan faktdir.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, qayd etish lozimki, qabul qilinishi kutilayotgan yangi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini ta'minlanishining muhim kafolatlaridan biri bo'lishi bilan birga, uni qo'lllovchi organlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun xizmat qilishi lozim. Buning uchun esa, qonunda o'z ifodasini topadigan har bir institutni qo'llash shartlari va protsessual tartibi aniq belgilangan bo'lishi zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 15-son.
2. Beketov O.I. va boshqalar. Ma'muriy faoliyat. Umumiy qism: Darslik. - M.: Rossiya Ichki ishlar vazirligining TsOKR, 2019 yil.
3. Pushkarev E. A. Ichki ishlar organlari faoliyatida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlash tizimida qonuniylik va uning kafolatlari (nazariy va huquqiy jihat): Bitiruv malakaviy ishi. dis. ... samimiyl. qonuniy Fanlar. - Rostov-na-Donu, 2013 yil; Razuvaeva N.I. Ichki ishlar organlari xodimlarini tanlash va attestatsiyadan o'tkazish (ma'muriy-huquqiy va tashkiliy jihatlar): Bitiruv malakaviy ishi. dis. ... samimiyl. qonuniy Fanlar. - Voronej, 2014 yil.
4. Boimirzaeva R.X., Axmedova X. Temur tuzuklari – buyuk siyosiy-huquqiy manba // Yosh olim. – 2017. – URL <https://moluch.ru/archive/177/46185/> (kirish sanasi: 26.02.2020).